O‘ZBEKISTON TASVIRIY SAN’ATIDA MAHOBATLI RANGTASVIRNING TARIXIY TARAQQIYOTI VA ZAMONAVIY RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Jumaniyazov Shixnazar
ORCID: 0009-0000-1130-4577
Jumaniyazov.shxnazar@mail.ru
Kamoliddin Bexzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda mahobatli rangtasvir asarlarining tarixiy va zamonaviy ahvoli haqida fikr yuritiladi. Unda eng avvalo qadimgi davrlardan boshlab mahobatli san’at asarlarining vujudga kelishi haqida so‘z boradi. Jumladan, qadimiy devoriy suratlar asosida yaratilgan zamonaviy rang-tasvir asarlari xususida ilmiy ma’lumotlar berilgan.

Tayanch so‘z va iboralar: Tasviriy san’at, san’at tarixi, san’at durdonalari, qadimgi san’at, o‘rta asrlar san’ati, mustaqillik davr yutuqlari, rassomlar, ijodkorlar

HISTORICAL DEVELOPMENT AND FUTURE PROSPECTS OF MONUMENTAL PAINTING IN THE FINE ARTS OF UZBEKISTAN

Jumaniyazov Shixnazar
ORCID: 0009-0000-1130-4577
Jumaniyazov.shxnazar@mail.ru
National Institute of Fine Arts and Design named after Kamoliddin Behzod

Abstract: The article expressed an opinion about the historical and current state of the works of the monumental painting of Uzbekistan. Since ancient times, the development of monumental art works presented data on its origin. Notes in particular wall paintings.

Keywords: fine arts, history of art, pearls of art, the ancient art, medieval art, the achievements in the period of independence,artists, and creators

O‘zbekiston tasviriy san’atida mahobatli rangtasvir qadimiy tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, xalqimizning milliy qadriyatlari, madaniy merosi va badiiy tafakkurini o‘zida mujassam etgan san’at turlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ushbu san’at yo‘nalishining tarixiy an’analarini zamonaviy ijodiy yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish, uning badiiy imkoniyatlarini kengaytirish va rivojlanish istiqbollarini o‘rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

(cc) BY

Yurtimizning bebaho boyligi sanaladigan qadimiy yodgorliklarni qayta tiklash, ularni asrab-avaylash, o‘rganish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan masala hisoblanadi. Bizga ma’lumki, xalqimizning asrlardan-asrlarga meros qilib saqlanib kelayotgan milliy me’morchiligimiz zamirida yaratilgan mahobatli rangtasvir devoriy asarlar uzoq tarixiy davrga borib taqaladi. Yurtimiz san’ati qadimgi davrlardan boshlab jahon madaniyati rivojiga o‘zining bebaho hissasini qo‘shmoqda. Xalqlar, millatlar, shuningdek, davrlar san’ati bir-biriga qo‘shilib borib rivojlanadi, o‘zgacha namunalarni yuzaga keltiradi. Suning uchun ham san’atda yangicha oqimlar, yunalishlar, uslublar shakllanmoqda anna shunday yo‘lishlardan birib o‘lgan mahobatli rangtasvir san’atining tarixi tadqiqoti ham dolzarb masalalardan sanaladi.

Mahobatli rangtasvir qadimiy san’at turlari ichida birinchi bo‘lib shakllangan. Insoniyatning rivojlanish taraqqiyoti davrida ham Sharq va G‘arb mamlakatlari orasida muvaffaqiyatlarga erishib kelgan hamda katta qiziqishlar uyg‘otgan. Hozirgi kunda qator Evropa mamlakatlari Sharq xalqlarining mahobatli rangtasvir asarlariga qiziqishsa bu borada Sharq xalqlari ham boshqa mamlakatlarning ahamiyatga molik ijod manbalarini o‘rganishga intilib kelgan. Bu san’at turi buyicha bir qator mashhur hududlar xususan Xitoy, G‘arbiy Sharq,Osiyoda yuksak taraqqiy etgan va omad keltirgan. Ayniqsa, Evropa mamlakatlarida juda yaxshi rivojlangan. [1.542.]

Sharq xalqlarida esa bir jihatdan ushbu san’at turi rivoji qisman qotib qolganligini ko‘rish mumkin. Agar tarixiy voqealarga ahamiyat beradigan bo‘lsak aynan ana shu mahobatli devoriy suratlar dunyo xalqlarining fikrlashini o‘zgarishiga sabab bo‘lgan. Hozirgi kunda Sharq xalqlarining bu turdagi asarlarini butunligicha saqlab qolinmaganligi o‘rganilishi lozim masala sifatida yuzaga chiqdi. Shuning uchun ham ijod manbalari taxminlar va farazlar orqali tasavvur qilinadi. Yuqoridagi fikrlardan shuni xulosa qilish mumkinki, mahobatli rangtasvir asarlari tarixi, zamonaviy kundagi ahvoli qancha ko‘p o‘rganilishiga qaramay hali ham kamchiliklari juda ko‘pligiga amin bo‘lamiz. Shuning uchun ham, bu ijod turini qancha ko‘p o‘rgansak foydali bo‘lib dolzarbligicha qolmoqda. [2.]

San’atning bu turi xalqimizning madaniy hayoti, etnik kelib chiqishi, kundalik turmushini bilib olishimizda birinchi manba bo‘lib hisoblanadi. Mahobatli rangtasvir san’ati qadimiy devoriy suratlar orqali shakllangan bo‘lib, uni o‘rganishda IV asrdan to XX asrga qadar bo‘lgan davr mahobatli san’at asarlarini tahlili asosida olib borilishi lozim.

Mahobatli rangtasvir san’atini qadimgi davrdan to hozirgi kunga qadar bosib o‘tgan yo‘li bu ijod turining asrlar mobaynida rivojlanib sayqal topganini va XX asrdan zamonaviy uslubda rivojlana boshlagani kuzatish mumkin.

San’atning serqirraligi xususida to‘xtaladigan bo‘lsak, bu hol tabiiy ravishda rassomlarning ijodiy usullarining turli-tumanligidan ularning har biri o‘ziga hos shaxs bo‘lib, borliqni alohida idrok etishi bilan izohlanadi. Bir qarashda O‘zbekiston

(cc) BY

san'atidagi umumiy shakllar boshqacha bo'lib ko'rinsada, baribir hozirgi ko'rib turganimiz ijodkorlarning madaniy manbaalarga, ijodimiz, fanimiz erishgan yutuqlarini o'rganish va o'zlashtirish, ajdodlarimiz tarixi va aqidalariga, mana shu go'zal zamin va biz paydo bo'lgunimizga qadar unda yashagan halqlarning boy merosiga katta qiziqish bilan qarashidan darak beradi.

O'zbekiston rassomlari, shuningdek, jahondagi badiiy jarayondan chet daqolayotganiyo'q. Milliy rangtasvir badiiy ufqda har yili yangi yangi, ijodi maftunkor san'atkorlar paydo bo'lib, ular san'atimizni yanada rivojlantirish va boyitishga xissa qo'shib kelmoqda.

Eng avvalo uni o'rganish uchun tarixga nazar tashlashimiz kerak. Tasviriy san'atning rivojlanishi mil.av. IV-asrda namoyon bo'ldi. Bu davrda nafaqat rangtasvir yoki haykaltaroshlik rivoji eng muhimi, tasviriy san'at rivojining me'morchilik bilan uyg'unlashganini ko'ramiz. O'rta Osiyoda muhim madaniy markazi bo'lgan O'zbekiston hududida ilk feodalizm badiiy madaniyatining yutuqlari monumental-dekorativ rangtasvir san'atida o'zini to'liq namoyon qiladi, Afrosiyob (Samarqand), Varaxsha (Buxoro vil.), Bolaliktepa (Surxondaryo vil.) devoriy suratlar jahon monumental-dekorativ rangtasvir san'atining nodir durdonasi hisoblanadi. Bu suratlar o'zining yuksak mahorat bilan ishlanganligi, real hayotni badiiy obrazlarda ifodali aks ettirishi bilan belgilanadi. Buxoro vohasidan topilgan Varaxsha hukmdori saroyi qoldiqlari va devoriy suratlari taxminan VII-VIII asrlarda ishlangan. Varaxsha devoriy suratlari ichida ov manzarasi yaxshi saqlangan. Bu suratda fil ustida ketayotgan odamlarga sherning hujumi tasvirlangan bo'lib, bu kompozitsiya o'zining dinamikasi va ajoyib rang gammasi bilan ijodkorning yuksak mahorat egasi ekanligini isbotlaydi. Rassom ishlagan har bir obrazning tugal shaklga ega bo'lishiga, har bir detalni ham iloji boricha aniq va tugal darajada ko'rsatishga intilgan. [3.22]

1965 yili Samarqand yaqinidan afsonaviy podshoh Afrosiyob saroyi arxeologik topilmasi katta shov-shuvga sabab bo'ldi. Bu topilma yana bir bor O'rta Osiyoda ilk feodalizm asridayoq yuksak madaniyat mavjud bo'lganligini jahonga namoyish etdi. Bu saroy qoldiqlarining devorlariga ishlangan tematik surat va naqsh kompozitsiyalari yuksak mahorat bilanishlanganligi bilan ajralib turadi. Afrosiyob devoriy surat kompozitsiya ishlanishi, detallarga e'tibor bershshshi jihatidan, Varaxsha suratlariga yaqin bo'lsa ham, lekin badiiylik va mahorat jihatidan ulardan ustundir. Afrosiyob devoriy suratlarining ahamiyati yana shundaki, suratlar bilan birga, So'g'd harflarida yozilgan bir qator so'zlar ham uchraydi. Afrosiyobda arxeologik qazishmalarda ochilgan devoriy suratlarning mazmuni yanada o'zgachadir. Oldinda oq fil ustida tahti ravonda malika, filga mingashgan joriya taxtiravonni ushlab bormoqda. Fil ortidan qorabayir, to'riq va saman mingan uchta ayol ulardan birinchisining qo'liga sug'dcha (malikaning yangasi) degan aniq so'zlar yozilgan. Ayollarni tuya mingan ikki nafar qurollangan erkak kuzatib bormoqda. Yuqoriroqda ot etaklagan kishi hamda to'rtta

(cc) BY

oqqush haydab boryotgan o‘spirinning surati chizilgan. Ularning og‘iz va burunlari oq mato bilan bog‘langan. Devorning markazida boshqa rasmlardan ikki barobar kattalashtirib chizilgan suvoriq otliqlar qurshovida ketmoqda. Xonalarning g‘arbiy devorida shohona liboslarda qimmatbaho tuhfalar ko‘targan kishilar tasvirlangan. Afrosiyob devoriy sur’atlari, musavvirning hayoliy mushohadasi bo‘lmay, balki unda Samarqandda bo‘lib o‘tgan tarixiy voqea Samarqand podshosining Chosh, Farg‘ona va Ustrushona davlatlari bilan olib borgan elchilik munosabatlari tasvir etilgan.

Ilk o‘rta asrlar rangtasvir (ayniqsa Samarqand) usuli goh tantanavor, goh shiddat ruhi bilan sug‘orilgan, odamlar qiyofalari imkon boricha tipiklashtirilgan, harakati va holati nazokat ila ifodalangan. Yuzlarini to‘rtdan uch qismini tasvirlanish shakllarining murakkab holatlariga qaramay rangtasvir uslubiga o‘zgacha e’tibor berilgan. Bezakdor obrazlarning umumiy mahobatini kuchaytiruvchi usulning asosiy hususiyatiga aylandi, bezakda tasviriy lavhalar naqshlar bilan uyg‘unlashdi.

O‘rta Osiyoning ilk feodalizm asridagi monumental-dekorativ rangtasviri to‘g‘risida fikr yuritganda, Termiz yaqinidan topilgan «Yumaloq tepa», unga yaqin joylashgan «Bolalik tepa» devoriy suratlarini eslamay bo‘lmaydi. Bu suratlar harakterining shakllanishida shu davr monumental-dekorativ rangtasviriga xos uslub mavjud bo‘lib, bular birlikda O‘rta Osiyo ilk feodalizm asrida bu san’atning yuksak bo‘lganligi, bu san’atda turli uslub va yo‘nalishlar mavjud bo‘lganligini yana bir bor namoyon qiladi. Ilk feodalizm asrida amaliy-dekorativ san’at ham jiddiy ravnaq topdi.

Dalvarzintepa devoriy sur’atlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, mavzularning hilma hilligi va ularning o‘ta mahoratli ishlanganligini ko‘rishimiz mumkin. Devoriy rasmlar va haykaltaroshlikda bu davr rivojlanishida diniy tushunchalar turli etnomadaniy oqimlar katta ta’sir ko‘rsatgan. Bunda tasviriy san’atning nodir namunalaridan biri Bolaliktepa devoriy sur’atlaridir. Unda qahramonlar mavjud tarixiy muhit qamrovida tantanali ko‘rinishlarda o‘z aksini topgan. [4.251]

Bugungi kunga kelib, O‘zbekiston rang-tasvirda yangilanish g‘oyalari munosabati bilan turli jabhalarda yangi fikrlash nuqtai-nazari bilan keng ma’noda badiiy tajribani anglashning o‘zaro aloqadorligiga qiziqish kuchaydi. Bugungi olib borayotgan siyosatining asosi negizida erkinlik g‘oyasi bilan singdirilgan asarlarga talab vaqt o‘tishi bilan ortib bormoqda, bu esa rassomlar ijodiga alohida e’tiborni ortishidan dalolat beradi.

Ayni paytda monumental san’at sohasini rivojlantirish bo‘yicha ijodkorlar oldida ko‘pgina vazifalar turganini ta’kidlash lozim. Hususan bu sohada ham zamonaviy ijodiy maktab yaratish, shu maqsadda keng miqyosda fikrlaydigan, qadimiy tariximiz, milliy tabiatimizni chuqur biladigan, o‘zi yaratayotgan obrazining barcha hususiyatlarini avvalambor yuragidan, qalbidan o‘tkazib ijod qilishga qodir bo‘lgan etuk haykaltarosh va me’morlarni tarbiyalash dolzarb masala bo‘lib turibdi.

(cc) BY

O‘zbekistonda ro‘y berayotgan yirik o‘zgarishlar, yangilanish, taraqqiyotning yangiyangi bosqichlarga ko‘tarilishi mazkur san’at yo‘nalishida ulkan kashfiyotlar amalga oshirishda imkon yaratmoqda. O‘zbekiston zamonaviy tasviriy san’atining asosiy tamoyillari, uslublarning keng ko‘lamliligi xamda yuqori mahorati, obrazlar mazmundorligini saqlagan holda, realistik an’analardan tortib, avangardlik yo‘lidagi izlanishlargacha, ayniksa monumental san’ati namunalarida namoyon bo‘ladi. Jumladan, mana shunday ko‘rkam inshoatlardan biri Senat binosining asosiy kirish zali devorlarida yurtimizning buyuk rassomi, akademik V.I.Burmakin ijodiga mansub mahobatli rangtasvir asarlarini ko‘rishimiz mumkin. Bu asarlarda Sherdor madrasasining ornamental shakllaridan tashkil topgan juda murakkab kompozitsiyani hamda uning karshisidagi ikkinchi asariga nazar tashlasak, ushbu asar abstrakt yo‘nalishida yaratilgan. Asarda ranglar orqali shakllardan iborat bo‘lgan, yuqoriga qarab intilayotgan chizgilarda, yurtimizning serquyosh jannatmakon o‘lkaligini yuksak maxorat bilan tasvirlagan.

Hozirgi globallashuv jarayonida shaklan va mazmunan milliy yo‘nalish kasb etadigan san’at umuminsoniy xarakter yuzaga kelishi hamda jahon tsivilizatsiyasida namoyon bo‘lishida o‘zining xarakterli xususiyatlarini saqlab qolishi kerak. Bu jihatdan tobora yangi shakl va yo‘nalishlarni qamrab olayotgan tasviriy san’atning o‘rni beqiyosdir.

Hulosa qilib aytganda, O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng ajdodlarimiz tomonidan ming yilliklar ichida yaratilgan bebaho meros ¬ an’anaviy badiiy madaniyati, tasviriy va amaliy san’atini tiklash, saqlash hamda taraqqiy ettirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Mahobatli rangtasvir san’ati rivojini asosiy mezonlardan biri bo‘lgan ijodiy erkinlikni, mavzu va uslublarining erkin tanlanishini, eng muhimi esa badiiy me’rosimizning boy an’analariga murojaat qilishga keng imkoniyatlar yaratmoqda, hamda ma’naviy olamimizni yuksaltirishga katta hissa qo‘shmoqda. Mustaqillik yillarida mahobatli rangtasvir san’ati o‘tish davrining qiyinchiliklariga qaramay to‘xtab qolmadi. Katta avlod vakillari bilan bir qatorda zamonaviy badiiy jarayonda dadillik bilan yaratilayotgan izlanishlarga doir bir qator asarlar yaratildi. Jumladan, J.Umarbekov, B.Jalolov, R.Xudayberganov va A.Aliqulov, rang-barang ijod namunalari zamonaviy mahobatli rangtasvir rivojini va milliy-madaniy izlanishlarni aks ettiradi. Mazkur ijodkorlar tomonidan yaratilgan asarlar nafaqat yurtimizning yosh ijodkorlari uchun, balki, madaniy meros sifatida tomoshabinlar va sayyohlarga milliy ma’naviyatimiz va san’atimizni namoyon etuvchi shoh asarlar sifatida saqlanib qoldi. Zero, millatning san’ati va madaniyati uning o‘ziga xosligini belgilab beruvchi omil desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

(cc) BY

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Amaliy bezak san’ati. Tasviriy san’at. O‘zME. Toshkent: 12 tom. 2006y; 542-563 betlar;

2. Азия и Африка сегодня, № 2,4,6,8. - 80 б. 2007й.

3. Болшой энциклопедический словарь, Санкт-Петербург “Норинт”, 1997й.

4. Комаров, А.А. Стенопись : Объём и пространство, - М. 2000й.

5. Пугаченкова Г. Из художественной сокровишницы. Средного Востока Тошкент: 1987й.;

6. Степанов, Г.П. “Композиционные проблемы синтеза искусств”.- Л. “Художник”. 1984й.

7. Сикейрос, Д.А. “Композиция на здании ректората в университеском городке, фрагмент. Комбинированная техника высокого рельефа, живописи, мозаика из естественного камня, керамики и металлических плиток”. 1952й.

8. Тормаи, О. “Каменные мозаики”.-М. 1951й. -1953

9. O‘zbekiston san’ati. Toshkent: 2001y

10. Qoraboev, U. Madaniyat masalalari. Toshkent: 2009y.;

11.Abdullaev N. “O‘zbekiston san’at tarixi”.Toshkent:2007 y.;

12. E.Umarov «Estetika» Toshkent: “O’qituvchi” 1995.

13. N.Raxmatova. “Yoshlarning ma’naviy kamolotida musiqiy tarbiyaning roli”. Xalq ta’limi. №4 T, 2005 yil

14. “Estetika” Uzdavnashr. Toshkent: 2004 yil.

15. Falsafadan qomusiy lug’at. Toshkent: 2005.

16. E. Yusupov, D. Ismoilov. “Odamiylik saboqlari” Toshkent: “O’qituvchi” 1997.

17. Safo Ochil “Mustaqillik ma’naviyat va tarbiya asoslari” Toshkent: “O’qituvchi” 1995.

18. Ҳакимов А. Искусство Узбекистана: история и современность.-Т.2010

19. Ҳакимов А. История Искусств Узбекистана.Т; 2018.

(cc) BY